**NAVOIY VILOYATI**
**STATISTIKA BOSHQARMASI**

# Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

*2021- yilda **15 020,1** mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **86,0** % ni tashkil etdi.*

*Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 7,0 % ni tashkil etib, 1 048,9 mlrd. so‘m kiritildi.*

*Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 13 971,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 93,0 % ulushini tashkil etdi.*

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

**Markazlashgan investitsiyalar**
**1 048,9**
**mlrd. so‘m**

**15 020,1**
**mlrd. so‘m**
**o‘sish sur‘ati**
**86,0 %**

**Markazlashmagan investitsiyalar**
**13 971,2**
**mlrd. so‘m**

**O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar**
**220,4**
**mlrd. so‘m**

**Jami xorijiy investitsiya va kreditlar**
**9 204,2**
**mlrd. so‘m**

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya**
**2 160,6**
**mlrd. so‘m**

| Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulushi %da | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o’sish sur`ati, %da |
|---|---|---|
| 0,4 % | Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | 117,7 % |
| 4,6 % | Respublika budjeti | 208,8 % |
| 0,5 % | Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | 21,1 % |
| 1,5 % | O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar | 7,1 % |

| Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o’sish sur`ati, %da |
|---|---|---|
| 18.9 % | Korxona mablag‘i | 89,0 % |
| 9,7 % | Aholi mablag‘lari | 110,5 % |
| 4,6 % | Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz | 172,6 % |
| 59,8 % | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar | 256,9 % |

*2021- yilda korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2 837,0 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,9 % ulushini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,7 % ulushi yoki 1 464,4 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.*

*To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 983,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi.*

**Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m**

- 683,6 — Respublika budjeti
- 77,3 — Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi
- 67,7 — Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
- 220,4 — O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar
- 2 837,0 — Korxona mablag‘i
- 685,9 — Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari
- 8 983,8 — To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar
- 1 464,4 — Aholi mablag‘lari

*Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 685,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,6 % ini), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 220,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,5 % ini), Respublika budjeti 683,6 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,6 % ini), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 77,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,5 % ini) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.*

*Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi byudjeti mablag'larida kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 208,8 % ga, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari tomonidan esa 172,6 % ga o'shdi.*

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan ivestitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etib,* ***"Zarafshon Oyna" MChJ qo'shma korxonasi*** *tomonidan deraza oynalari-shisha buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish va* ***"JV CONTINAZ" MCHJ qo'shma korxonasi*** *tomonidan esa karbamid formaldegid konsentratini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*

## *Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar*

| | Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm | shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan %da): | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Respublika budjeti | Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari | Aholining o'z mablag'lari | Xorijiy investitsiya va kreditlar | Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi |
| **Navoiy viloyati:** | **15 020,1** | **4,6** | **18,9** | **9,7** | **61,3** | **0,4** | **4,6** | **0,5** |
| *shaharlar:* | | | | | | | | |
| Navoiy sh. | 3802,9 | 2,5 | 9,8 | 1,3 | 10,2 | 0,1 | 1,2 | 0,5 |
| Zarafshon sh. | 1700,2 | 0,2 | 0,8 | 0,3 | 9,8 | 0,04 | 0,04 | - |
| G'ozg'on sh. | 87,0 | 0,1 | 0,1 | - | 0,2 | 0,04 | 0,1 | - |
| *tumanlar:* | | | | | | | | |
| Karmana | 2267,4 | 0,3 | 3,1 | 1,3 | 8,8 | 0,03 | 1,5 | - |
| Konimex | 1227,3 | 0,1 | 1,0 | 0,5 | 6,1 | 0,02 | 0,4 | - |
| Qiziltepa | 497,5 | 0,4 | 1,1 | 1,1 | 0,5 | 0,03 | 0,3 | - |
| Navbahor | 415,0 | 0,2 | 0,4 | 1,2 | 0,4 | 0,02 | 0,6 | - |
| Nurota | 459,9 | 0,3 | 0,6 | 1,2 | 0,6 | 0,05 | 0,3 | - |
| Tomdi | 3371,8 | 0,1 | 0,4 | 0,1 | 21,8 | 0,02 | 0,01 | - |
| Uchquduq | 269,1 | 0,1 | 0,8 | 0,2 | 0,7 | 0,01 | 0,04 | - |
| Xatirchi | 922,0 | 0,3 | 0,8 | 2,5 | 2,2 | 0,1 | 0,2 | - |

**Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

## *2021- yilda shahar va tumanlar bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar*

| | o‘sish sur’ati | investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m | Navoiy viloyatidagi ulushi |
|---|---|---|---|
| Navoiy shahar | 74,5 % | 3802,9 | 25,3 % |
| Zarafshon shahar | 93,8 % | 1700,2 | 11,3 % |
| G‘ozg‘on shahar | 1555,3 | 87,0 | 0,6 % |
| Karmana tumani | 126,7 | 2267,4 | 15,1 % |
| Konimex tumani | 65,3 % | 1227,4 | 8,2 % |
| Qiziltepa tumani | 85,7 % | 497,5 | 3,3 % |

## Navbahor tumani

*o‘sish sur’ati*: 105,5 %

*investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m*: 415,8

*Navoiy viloyatidagi ulushi*: 2,8 %

## Nurota tumani

*o‘sish sur’ati*: 122,6 %

*investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m*: 459,9

*Navoiy viloyatidagi ulushi*: 3,1 %

## Tomdi tumani

*Navoiy viloyatidagi ulushi*: 22,4 %

*investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m*: 3371,8

*o‘sish sur’ati*: 109,3 %

## Uchquduq tumani

*o‘sish sur’ati*: 19,5 %

*investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m*: 269,1

*Navoiy viloyatidagi ulushi*: 1,8 %

## Xatirchi tumani

*Navoiy viloyatidagi ulushi*: 6,1 %

*investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m*: 922,0

*o‘sish sur’ati*: 87,9 %

**_2021- yilda investitsiyalarning o‘sish sur’atlari, %da_**




*Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati 1555,4 % ga o‘sib, G’azg’on shaharida kuzatildi. Bu asosan "NAVOIY MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DUK, "NAVOIY HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan yirik loyihalar tashkil etish bilan bog‘liq.*

*Shuningdek, Karmana tumanida ham yuqori o‘sish sur’ati kuzatilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 126,0 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "AKFA EXTRUSIONS" mas‘uliyati cheklangan jamiyati alyumin profil mahsulotlarini islab-chiqarishni tashkil etish bilan izohlash mumkin.*

*Viloyatda investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ulushga ega bo’lgan Navoiy shahri (25,3 %), Tomdi tumani (22,4 %), hamda Karmana tumani (15,1 %) ushbu tuman va shaharlarda o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmi o‘sish sur’atining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.*

## *Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, (%da)*

**55,9 %** — **Mashina, uskuna, inventar**

**39,7 %** — **Qurilish-montaj ishlari**

**4,4 %** — **Boshqa xarajatlar**

*Navoiy viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 8 403,1 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 55,9 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo‘yicha 5 956,8 mlrd. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 39,7 %) va boshqa xarajatlarga 660,2 mlrd. so‘m (4,4 %) o‘zlashtirildi.*

*Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Navoiy shahrida kuzatildi – 12,7 % yoki 1911,3 mlrd. so‘m.*

*Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja G‘ozg‘on shahrida kuzatilib, 0,3 % ni yoki 48,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich kuzatilib – 19,2 % yoki 2889,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

### *Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)*

*Yangi qurilish-* **64,4 %**

*Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya -* **26,0 %**

*Boshqa yo‘nalishlar -* **9,6 %**

*Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 9 676,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 64,4 %ini tashkil etdi.*

*Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 3 902,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 26,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 9,6 % i, ya'ni 1 441,3 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.*

*Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 481,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 56,5 % i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:*

*- metallurgiya sanoati – 5 455,7 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 36,3 %).*

*- boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish – 1 787,7 mlrd. so'm.*

*- kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish – 593,3 mlrd. so'm.*

## *Shahar va tumanlar kesimida Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi*

*Jami hajmdagi ulushi %*

| | Qurilish montaj ishlari | Mashina, uskuna, inventarlar | Boshqa xarajatlar |
|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **39,7** | **55,9** | **4,4** |
| **shaharlar:** | | | |
| Navoiy | 12,8 | 11,5 | 1,0 |
| Zarafshon | 7,3 | 4,0 | 0,1 |
| G'ozg'on | 0,3 | 0,3 | - |
| **tumanlar:** | | | |
| Karmana | 4,6 | 9,7 | 0,8 |
| Konimex | 2,5 | 5,4 | 0,3 |
| Qiziltepa | 2,1 | 0,9 | 0,3 |
| Navbahor | 1,5 | 0,8 | 0,5 |
| Nurota | 2,0 | 0,4 | 0,6 |
| Tomdi | 2,9 | 19,2 | 0,3 |
| Uchquduq | 0,6 | 1,1 | 0,1 |
| Xatirchi | 3,1 | 2,6 | 0,4 |

## *Xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilishi, (2021- yil)*

| | Jami xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so‘m | | *shundan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so‘m* | |
|---|---|---|---|---|
| | *jami* | *jamiga nisbatan, %da* | *jami* | *jamiga nisbatan, %da* |
| **Navoiy viloyati** | **9204,2** | **100,0** | **8983,8** | **100,0** |
| shaharlar: | | | | |
| Navoiy | *1537,6* | *16,7* | *1412,3* | *15,7* |
| Zarafshon | *1475,3* | *16,0* | *1475,3* | *16,4* |
| G‘ozg‘on | *30,7* | *0,3* | *30,7* | *0,3* |
| tumanlar: | | | | |
| Karmana | *1320,8* | *14,3* | *1277,0* | *14,2* |
| Konimex | *921,3* | *10,0* | *921,3* | *10,3* |
| Qiziltepa | *67,7* | *0,7* | *37,6* | *0,4* |
| Navbahor | *56,0* | *0,6* | *56,0* | *0,6* |
| Nurota | *83,3* | *0,9* | *83,3* | *0,9* |
| Tomdi | *3280,3* | *35,6* | *3280,3* | *36,5* |
| Uchquduq | *97,7* | *1,1* | *97,7* | *1,1* |
| Xatirchi | *333,6* | *3,6* | *312,3* | *3,5* |

*To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 8 983,8 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 220,4 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.*

*Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,0 % ni tashkil etdi.*

## *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da*

**8,5 %** — *Elektr, gaz bilan ta’minlash*

**1,2 %** — *Tog‘-kon sanoati*

**56,5 %** — *Qayta ishlash sanoati*

**0,2 %** — *Axborot va aloqa*

**8,7 %** — *Qishloq xo‘jaligi*

**0,6 %** — *Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya*

**4,5 %** — Qurilish

**2,7 %** — *Tashish va saqlash*

**0,7 %** — *Sog‘liqni saqlash*

**2,4 %** — *Ulgurji va chakana savdo*

**14,0** — *Boshqalar*

## *Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan Investitsiyalar hajmi, (ming so‘mda)*




Joriy davrda jami umumiy maydoni 819,6 ming kv.m bo‘lgan 2801 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ulardan umumiy maydoni 587,5 ming kv.m bo‘lgan 2061 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.



***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi***

Aloqa telefoni: ***(79) 223-54-73***